



UDK:821.512.161-1.09

Foziljon RAJABOV,

Tayanch doktorant, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, Toshkent, O'zbekiston

E-mail: foziljonrajabov5@gmail.com, ORCID: 0009-0008-5802-4589

Professor, f.f.d P.Kenjayeveva taqrizi asosida

TALMEH SAN'ATI VA UNING NURULLOH GENCH POETIKASIDAGI O'RNI

Annotatsiya

Mazkur maqolada Sharq adabiyotining muhim badiiy san'atlaridan biri bo'lgan talmeh san'ati va uning zamonaviy turk she'riyatidagi yorqin namoyondalaridan biri Nurulloh Gench poetikasidagi o'rni ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Talmeh san'ati tarixiy, diniy, afsonaviy voqealarga ishora qilish orqali matnning ma'no qatlamini boyituvchi estetik vosita sifatida yoritiladi. Maqolada Nurulloh Gench she'rlarida qo'llanilgan talmehlar mazmuniga ko'ra guruhlariga ajratilib, payg'ambarlar va avliyolar, tarixiy shaxslar, mashhur muhabbat qissalari hamda mifologik obrazlarga qilingan ishoralar misollar asosida tahlil qilinadi. Xususan, Ibrohim, Sulaymon alayhissalom qissalari, Neron obrazi, Layli va Majnun, Farhod va Shirin kabi timsollar orqali shoirning diniy-ma'naviy tafakkuri, tasavvufiy qarashlari va zamonaviy inson ruhiyati uyg'un holda ochib beriladi. Tadqiqot natijasida Nurulloh Gench ijodida talmeh san'ati Sharq va G'arb madaniy xotirasini birlashtiruvchi muhim poetik vosita sifatida namoyon bo'lishi aniqlanadi.

Kalit so'zlar: Talmeh, tasavvuf, poetika, payg'ambar qissalari, ramz, Nurulloh Gench, turk she'riyati

ИСКУССТВО ТЕЛЬМЕХА И ЕГО РОЛЬ В ПОЭТИКЕ НУРУЛЛАХА ГЕНЧА

Аннотация

В данной статье проводится научно-теоретический анализ искусства тельмеха одного из важных художественных приемов восточной литературы и его роли в поэтике Нуруллаха Генча, одного из ярких представителей современной турецкой поэзии. Искусство тельмеха рассматривается как эстетическое средство, обогащающее смысловые слои текста посредством отсылок к историческим, религиозным и мифологическим событиям. В статье аллюзии, используемые в стихах Нуруллаха Генча, классифицируются по содержанию, и на основе примеров анализируются отсылки к пророкам и святым, историческим личностям, известным любовным сюжетам, а также мифологическим образам. В частности, через такие образы, как истории пророков Ибрахима и Сулеймана, образ Нерона, а также символические пары Лейли и Меджнун, Фархад и Ширин, раскрываются религиозно-духовное мышление поэта, его суфийские взгляды и психология современного человека.

Ключевые слова: Тельмех, суфизм, поэтика, истории пророков, символ, Нуруллах Генч, турецкая поэзия.

THE ART OF TALMEH AND ITS ROLE IN THE POETICS OF NURULLAH GENCH

Annotation

This article provides a theoretical and analytical examination of the art of talmeh one of the significant artistic devices in Eastern literature and its role in the poetics of Nurullah Gench, one of the prominent representatives of modern Turkish poetry. The art of talmeh is discussed as an aesthetic device that enriches the semantic layers of a text through references to historical, religious, and mythological events. In the article, the allusions used in Nurullah Gench's poems are classified according to their content, and references to prophets and saints, historical figures, famous love narratives, and mythological images are analyzed with examples. In particular, through figures such as the stories of Prophet Ibrahim and Prophet Sulayman, the image of Nero, and symbolic pairs like Layla and Majnun, Farhad and Shirin, the poet's religious and spiritual worldview, Sufi perspectives, and the psychology of the modern individual are revealed in harmony.

Key words: Talmeh, Sufism, poetics, stories of prophets, symbol, Nurullah Gench, Turkish poetry.

Kirish. Talmeh san'ati Sharq she'riyatida qadimdan keng qo'llanilib kelayotgan badiiy san'at turlaridan biri hisoblanadi. U o'z mohiyatiga ko'ra ishora, eslatma va ramziy murojaat orqali ma'no ifodalash vositasidir. Zamonaviy turk she'riyatida ham talmeh san'ati badiiy ifoda vositasi sifatida o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Ayniqsa, Nurulloh Gench ijodida bu san'atning zamonaviy poetik talqini alohida o'rin tutadi. Shoirning she'rlarida Qur'on va hadis manbalari, tarixiy voqealar, tasavvufiy timsollar va afsonaviy obrazlar talmeh vositasida badiiy ma'noga ega bo'ladi. Natijada, uning poetik olamida diniy-ma'naviy ruhiyat, zamonaviy inson iztirobi va ishora orqali anglatilgan mazmun bir butunni tashkil qiladi. Ushbu maqolada talmeh san'atining nazariy asoslari, uning Sharq adabiyoti an'alaridagi o'rni hamda Nurulloh Gench she'riyatidagi o'ziga xos talqini tahlil etiladi.

Mavzu bo'yicha adabiyotlar tahlili. O'zbek adabiyotshunosligida talmeh san'atini o'rgangan olimlardan biri Abduqodir Hojiahmadov bo'lib, "She'r san'atlarini bilasizmi?" asarida "Talmeh ("nazar solmoq") she'r yoki nasrda mashhur tarixiy voqealar, afsonalar, adabiy asarlar yoki maqollarga ishora qilmoq san'atidir"deb ta'riflaydi[1]. D.Quronov, Z.Mamajonov va M.Sheraliyevlar tomonidan tuzilgan "Adabiyotshunoslik terminlari lug'ati"da talmeh san'ati haqida shunday deyiladi: "Talmeh qo'llangan bayt mazmuni ishora qilinayotgan tarixiy voqea yoki badiiy asar mazmuni bilan boyiydi. Talmehdagi ishora tarixiy voqea yoki badiiy asar nomini keltirish, ular bilan bog'liq biror lafzni tilga olish orqali ochiq yoki yashirin tarzda amalga oshirilishi mumkin"[2].

Turk adabiyotshunosligida talmeh “telmi” atamasi nomi bilan atalib, professor Ismoil Durmush TDV “Islām Ansiklopedisi” uchun yozgan “Telmi” maqolasida bu san’atning xususiyati haqida to’xtalib o’tadi [3]. Qur’on obrazlarining adabiy talqiniga doir Halil Akkayaning Sulaymon alayhissalomga bag’ishlangan maqolasi esa Hazrat Sulaymonni saltanat va dunyoviy kuch ramzi sifatida talqin etib, Bilqis va hudhud obrazlarining adabiyotdagi o’rnini ko’rsatadi [4]. Diniy qissalarning manbaviy asoslarini aniqlashda tafsir va hadislar muhim o’rin tutadi. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusufning “Tafsiri Hilol” asari Naml surasidagi qissalarning ma’noviy qatlamlarini ochishda asos bo’ladi [5], Rabg’uziyning “Qisasi Rabg’uziy” asari esa Ibrohim alayhissalom va Namrud qissasining adabiy-folklorik tasvirini keltiradi [6].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda qiyosiy-tahliliy, struktural va germeneytik metodlardan foydalanildi. Qiyosiy tahlil N.Gench she’rlarini klassik Sharq adabiyoti an’analari bilan solishtirish imkonini berdi. Struktural metod talmehning she’r matnidagi o’rni va tizimini aniqlashda qo’llanildi, germeneytik yondashuv esa she’riy matnlarning ko’p qatlamli, xususan diniy-tasavvufiy ma’nolarini ochishda asos bo’ldi.

Tahlil va natijalar. Talmeh san’ati ijodkorning mahoratini namoyish qiladi. Unda shoir asarida o’zidan oldingi ijodkorlar qahramon va shaxsiyatlarga ham ishora qiladi. Nurulloh Gench ijodida qo’llanilgan talmeh san’atini quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

Payg’ambar va avliyolarga qilingan talmehlar

Tarixiy shaxslarga qilingan talmehlar

Ishq hikoyalarga qilingan talmehlar

Talmeh guruhi	Talmeh qilingan obrazlar	Asosiy manbalar	Vazifasi
Payg’ambar va avliyolarga qilingan talmehlar	Odam (a.s.), Ibrohim (a.s.), Ismoil (a.s.), Muso (a.s.), Sulaymon (a.s.), Bilqis, Hudhud	Qur’oni karim, hadislar, islomiy manbalar	Ilohiy ishq, tavakkul, sabr, ma’rifat
Tarixiy shaxslarga qilingan talmehlar	Neron, Mona Liza (G’arb madaniyati timsoli)	Tarix va jahon madaniyati	Lirik qahramon xarakterini ochish, tarixiy va madaniy assotsiatsiyalarni uyg’otish
Ishq hikoyalarga qilingan talmehlar	Layli va Majnun, Farhod va Shirin, Karim va Asli, Emrah va Selvi	Sharq va turkiy mumtoz adabiyoti, xalq dostonlari	Sadoqat, fidoiylik va tasavvufiy kamolot mazmunini ifodalash

Talmeh san’atini ta’riflashda eng ko’p ta’kidlanadigan jihatlardan biri uning ishora qilinayotgan xusus hammaga ma’lum bo’lishidir. Agar talmeh qilingan xusus kitobxon tomonidan tushunilmasa, san’at o’z maqsadiga yetmaydi. Professor Ismoil Durmush bu haqda “Talmeh qilingan bir ifodada talmeh borligi va nimaga talmeh qilinayotgani o’quvchi tomonidan anglashilishi kerak. Aks holda so’zni kuchaytirish maqsadida qo’llangan talmeh, ifodaning tushunilishini qiyinlashtirib, uni topishmoqqa aylantirishi mumkin”[3] deydi.

Erzurum garinda gece yarısı
Hıçkırıklar boğazıma tikanır
Nemrut ateşiyse sabaha kadar
İçimde binlerce İbrahim yanar[7]

“Seni Yaşamadan ölmeyeceğim” (“Sen bilan yashamay o’lmasman”) nomli she’ridan olingan yuqoridagi parchada shoir Qur’oni Karimda keltirilgan zolim podshoh Namrud va Ibrohim (a.s) qissasiga ishora qilib o’tadi. Ibrohim (a.s) butlarni sindirib tashlagandan keyin ularga sig’inuvchilardan bir yoshi ulug’rog’i chiqib: “Agar haqiqatdan ham ilohlaringga yordam bermoqchi, ular uchun o’ch olishni istasangiz “Ibrohimni yoqib yuboringiz! Agar (biror narsa) qiluvchi bo’lsangiz (shu ish bilan) ilohlaringizga yordam qilingiz!” (“Anbiyo” surasi, 68-oyat) agar shunday qilmasalaring, ilohlaring yana xavf ostida qolishi va Ibrohim bir kun sizlarni yo’g’ingizda yana ularni sindirib tashlashi mumkin”, dedi. Bu maslahat ularga ma’qul kelib, ular darhol katta bir maydonga juda ko’p o’tin to’plashdi. Ibrohim alayhissalomni olib kelib o’zlarining olovga uloqtiradigan maxsus uskunlari (manjaniq)ga bog’lab, go’yo bag’rimga tushganni bir lahzada kuydirib, kul qilaman deya yonayotgan dahshatli olovga u zotni uloqtirdilar. Tushgan narsani soniyada kuydirib yuborayotgan olovga otilgan Ibrohim alayhissalom ularga: “Sizlar meni olovga tashlasangiz-da hech Bütün gamlı hüthütlar Belis’la döner sana Gözlerinin dilini ancak Süleyman bilir Yıldızlar vuslat için her gece iner sana Rengini, gözlerinde kaybolan bilir

Nurulloh Gench she’riyatida uchraydigan talmehlar orasida payg’ambarlar ismlarini keltirish yoki ular yashagan davrga ishora qilish ko’p uchraydi. Uning “Siyah gözlerine beni de götür” (“Qora ko’zlaringga meni ham obket”) nomli kitobidan o’rin olgan she’rlarida buning namunalarini keltirish mumkin. Xususan, Odam, Ibrohim, Muso, Sulaymon, Ismoil alayhissalomlarning nomlari talmeh san’ati vositasida keltirib o’tiladi.

Erzurum vokzali yarim tunida
Hayqiriqlar bo’g’zimga tiqilar
Namrud otashi bilan tong otgunicha
İchimda minglagan İbrahim yonar

narsa qila olmaysizlar chunki Alloh O’zi menga kifoya qilguvchidir, U eng yaqin vakil, do’sdir (Xasbunalloxu va ni’mal vakiyl)”, dedilar[8]. “Qisasi Rabg’uziy”da, Namrud Ibrohim (a.s.) payg’ambarni olov ichida yonishini tomosha qilish uchun minoraga chiqqanida boshqa bir manzaraga duch keladi, ya’ni “Ibrohim atrofiga chechaklar ochilgan edi. Olov qizil, yashil, sariq chechaklarga aylangandi”. [6] Shoir bu qissaga ishora qilish orqali qalbida hosil bo’lgan alangani Namrud yoqqan gulxanga o’xshatadi. Lirik qahramon ichida bir tomondan nafsning alangalagan otashi ikkinchi tomondan, ilohiy rahmat bo’lmish yuksak imon kurashi misolida Ibrohim alayhissalom nomlari zikr qilinadi. Bunda qahramonning “chinqiriqlar bo’g’ozimga tiqilar” deyish orqali ichki kurash davom etayotgani buni his qilgan holda o’zini chin taslimiyat bilan nafsini yengishiga ishongan qahramon holati tasvirlanadi.

Payg’ambarlardan yana bir Qur’onda nomi zikr qilingan Sulaymon alayhissalom nomlarini “Gözlerine yazılmamış bir destan” (“Ko’zlaringga yozilmagan doston”) nomli she’rida shunday misralar bilan keltirib o’tadi: Barcha g’amnok huthutlar Belqis’la qaytar senga Ko’zlaring tilin faqat Sulaymon bilar Yulduzlar vuslat uchun har kecha tushar senga Rangini, ko’zlaringda yo’qolganlar bilar

Ushbu she'rdan olingan misralarda Qur'onda keltirilgan yana boshqa bir Sulaymon alayhissalom va Bilqis qissasiga ishora qilinadi. Unda hudhud Sulaymon alayhissalomga Saba malikasi Bilqis va uning adashgan xalqi haqida xabar beradi. Sulaymon alayhissalom esa uni haq dinga chaqiradilar va qissa so'ngida Bilqis va uning xalqi adashganini tan olib, Haq dinga qaytishadi. Avvalo Qur'oni Karim va hadislar, shuningdek Isroiliyotdan o'tgan va yuzlab yillar davomida xalq tafakkurida shakllanib kelgan rivoyatlar adabiyotning voz kechib bo'lmas manbasiga aylangan. Bilqis, hudhud, chumoli, jin, ifrit, saltanat, boylik, haybat, qush tilini bilish, shamolga va jinlarga hukmronlik qilish, muhr, aso bularning ba'zilari hisoblanadi. Hazrat Sulaymon saltanat va dunyoviy kuchning ramzidir.[4] Bu o'rinda shoir bir nechta nozik nuqtalarga ishora qilib o'tgan. Xususan, Bilqisning iymonga qaytishi "...U (malika): "Ey Robbim, albatta, men Vermedin bir siyah fotografini
Ya da bir hatira parmaklarindan
Beni bir kaygisiz Neron mu sandin
Hangi dushmanimin so'zune kandin
Götür, senin olsun bütün ihtişam
Gece mahkumuna kalır mı akşam

Rim imperatorlari orasida Neron o'zining zolimligi, aysh-ishratga berilib mamlakatning inqiroziga sababchi bo'lgani bilan tarixda nom qoldiradi. Lirik qahramon esa yoriga o'zini Neronga o'xshamasligi u kabi g'amsiz, dardsiz emasligiga urg'u qaratib o'tadi. Shoir she'rlarida nafaqat mumtoz adabiyotda qo'llanilgan talmehlardan foydalangan balki g'arb adabiyotida qo'llanilgan talmehlardan ham qo'llanadi bular orasida ushbu she'rda "Ey Mona Lisa'nin kiskandığı el" ("Ey Mona Lizaning rashq qilgan qo'li") misrasi besh marotaba turli o'rinlarda qo'llaniladi. Bu esa Leonardo Hicran rüzgarıyım; ellerim kanlı
Yağmur oldum, şimşek gibi çakıldım
Ferhat dağı yaran bir delikanlı
Emrah'ı Selvi'ye müptela kıldım[10]

Baytda shoir yori uchun tog'larni parchalab o'tgan Farxod obrazini keltiradi. Emrah va Selvi qissasi ham turkiy xalqlarda mashhur bo'lib shoir Emrahning Selviga oshiq bo'lganini ifoda etadi. Keyingi satrlarda bolalik davrlariga ishora qilib, "Otam menga Qur'on o'qishni o'rgatgandi. Siyrati Nabaviy, Hz.Ali janglari, Battol g'ozi, Muhammadiylar, Go'ro'g'li dostonlari, Karam va Asli, Emrah va Selvi Aşyanım tutmayı bilmedi elimden
Yaşamaya yol buldum ayrılıktan, ölümden
Masallar, efsaneler anlamadı halimden
Oysa ben Mecnunlarla, Ferhatlarla büyüdüm[12]

"Nagirem" ("Nigoram") she'rda ham Majnun va Farhod dostonlarini o'qib ulg'aygan shoir shunga ishora qiladi. Masal va afsonalar tushunmadi holimdan deya shoir o'zining holini Majnun va Farxod bilan qiyoslaydi. Shoirilar ijodlarida ko'p o'rinlarda lirik qahramon tilidan o'z holini Majnun yoki Farxodga o'xshatadi. Buning sababi bu qahramonlar o'z ishqiy yo'lida ko'plab qiyinchiliklarni boshidan o'tkazadi. O'z menligidan kechgan holda o'zligini topadi. O'zlik bo'lsa dunyodan foni bo'lib asl haqiqatga yetishishni ifoda etadi. Umuman olganda, Layli va Majnun, Farhod va Shirin, Emrah va Selvi kabi muhabbat timsollariga qilingan talmehlar Nurulloh Gench ijodidagi oshiqlik mavzusining tasavvufiy zaminini ochib beradi. Bu qahramonlar uning she'rlarida badiiy bezak sifatida emas balki, lirik qahramon ruhiy holatining timsoli sifatida gavdalanadi.

o'zimga zulm qilib yurgan ekanman, Sulaymon ila olamlarning Robbi-Alloha musulmon bo'ldim!" dedi.[9] Ko'zlarining tilini faqat Sulaymon bilar deganda Sulaymon aleyhissalomga berilgan karomatga ishora qilingan Naml surasining 16-oyatida "U: "Ey odamlar, bizga qush tili o'rgatildi va har bir narsadan berildi. Bu, albatta, ochiq-oydin fazldir" [5], dedi. Ma'lum bo'ladiki, oshiq foni dunyodan yuz o'girgan va endi yor visolidan boshqa hech narsa uni xushnud etolmaydi. Unda ma'rifatulloh hosil bo'lgan shuning uchun ham "Rangini, ko'zlaringda yo'qolganlar bilar" deb o'zligidan kechgan oshiqning holini tasvirlaydi.

Shoirning "Son Şarkı" ("So'ngi qo'shiq") nomli she'rda Rim imperiyasi inqiroziga sabab bo'lgan hukmdorlaridan biri Neron nomi tilga olinib lirik qahramon unga o'xshagan emasligini ta'kidlaydi.

Bermading oq qora rasmingni
Yoki bir xotira barmoqlaringdan
Meni g'amsiz Neron deb o'yladingmi?
Qaysi dushmanimning so'ziga aldanding
Obor, seniki bo'lsin barcha hashamat
Kecha mahkumiga qolarmi oqshom

Davinchining mashhur asaridagi nozik qo'l detaliga ishora qiladi. Ma'lumki, Monna Lisaning yuzidagi nim tabassumidan keyin uning qo'li eng ko'p muhokamalarga sabab bo'lgan. Undagi noziklik va yashirin sirlik kishilar e'tiborini jalb qilgan bo'lsa, shoir ham aynan shunga e'tibor qaratgan holda Mona Liza ham yor qo'lini rashk qilishini aytadi. Uning "Çiçekler üşümesin" ("Gullar sovqotmasin") nomli to'plamidan olingan "Hicran Rüzgarı" ("Hijron shamoli") she'rda shunday satrlarni keltiradi:

Hijron shamoliman qo'llarim qonli
Yomg'ir bo'ldim, chaqmoq kabi chaqildim
Farxod tog'ni parchalagan o'g'lon
Emrahni Selviga muhtalo qildim

hikoyalari, Oshiq Summani, Oshiq Shenlik hikoyalari esa qo'nolg'ada o'qilardi. Shom namozidan keyin barcha qo'nolg'ada yig'ilar, eshikdan kirilganda chapdan o'ngga qarab bolalar o'tirishardi. Bobom to'rda o'tirardi... U xonada biz o'qish va ishlashning ahamiyatini, jamoa bo'lishning bir va barobar bo'lishning ma'nosini tushundik." [11]

Oshiyonim tutishni bilmadi qo'limdan
Yashashga yo'l topdim ayriliqdan, o'limdan
Masallar, afsonalar tushunmadi xolimdan
Holbuki, men Majnunlar bilan, Farxodlar bilan ulg'aydim

Xulosa va takliflar. Talmeh san'ati sharq she'riyatining azaliy bezagi bo'lib, u ijodkorga kam so'z bilan ko'p ma'no anglatish imkonini beradi. Ushbu tadqiqot davomida Nurulloh Gench she'riyatida bu san'atning qay tarzda qo'llanilganligiga to'xtalib o'tildi. Shoir payg'ambar qissalariga xususan, Ibrohim alayhissalomning olov bilan bo'lgan sinovi va Sulaymon alayhissalomning Bilqis bilan munosabatiga murojaat qilar ekan, shunchaki tarixiy voqeani eslatish bilan cheklanmaydi. Balki bu qissalar orqali lirik qahramon kechinmalarini ifoda etib, ruhiy holatni bugungi kun qahramoni bilan uyg'unlashtiradi. Neron obraziga ishora esa shoirning nafaqat Sharq, balki G'arb tarixiga ham nazar tashlay olishini, ikki madaniyat xotirasini bir she'r ichida erkin tutashtira bilishini ko'rsatadi. Xulosa qilib aytganda, Nurulloh Gench ijodida talmeh san'ati shoirning dunyoqarashini va

poetik mahoratini namoyon qiluvchi asosiy badiiy vositaga aylangan.

ADABIYOTLAR

1. Ҳоҷиаҳмадов А. Шеър санъатларини биласизми? – Тошкент: Шарқ, 2001. – Б. 10.
2. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. – Toshkent: Akademnashr, 2013. – 408 b.
3. Durmuş İ. Telmih. – İslam Ansiklopedisi, C. 40. – İstanbul: TDV Yayınları, 2011. – S. 407–408.
4. Akkaya H. Süleyman. – Türkiye Diyanet Vakfı İslâm Ansiklopedisi, C. 38. – Ankara: Türkiye Diyanet Vakfı, 2010. – S. 60–62.
5. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Тафсири Ҳилол. – Тошкент: Hilol-Nashr. – Намл сураси, 16-оят.
6. Рабғузӣй Носириддин Бурҳонуддин. Қисаси Рабғузӣй. 1-китоб. – Тошкент: Ёзувчи, 1990. – Б. 65.
7. Genç N. Siyah Gözlerine Beni de Götür. – İstanbul: Timaş Yayınları, 2023. – S. 11.
8. <https://siyrat.uz/maqola/10771>
9. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Тафсири Ҳилол. – Тошкент: Hilol-Nashr. – Намл сураси, 44-оят.
10. Genç N. Çiçekler Üşmesin. – İstanbul: Timaş Yayınları. – S. 28.
11. Genç N. Omuzlarımda Dünya. – İstanbul: Timaş Yayınları, 2022. – S. 19.
12. Genç N. Dilek Tuttum Okunsun Ahım Arşa Dokunsun. – İstanbul: Timaş Yayınları. – S. 84.